

O'zbek olimlari CITES xalqaro seminarida ishtirok etdi

Joriy yilning sentabr oyida Xitoy Xalq Respublikasining Pekin shahrida bo'lib o'tgan "Seminar on CITES Implementation and Wildlife Conservation for Developing Countries" mavzusidagi xalqaro seminarda O'zRFA Botanika instituti yetakchi ilmiy xodimi Farhod Karimov va O'zbekiston Florasi laboratoriysi mudiri Orzimat Turginovlar ishtirok etishdi.



Mazkur seminarning asosiy maqsadi CITES xalqaro tashkilotiga a'zo bo'lgan, rivojlanib kelayotgan davlatlarning flora va faunasida yo'qolib ketayotgan turlarning xalqaro savdosi to'g'risida konvensiyasi (CITES) va ularning barqaror rivojlanish masalalari ko'rib chiqish, shu bilan birga yovvoyi tabiatni muhofaza qilish, savdo sotiq masalalari, CITES ro'yxatiga kirgan hayvonlarning yangi ilovalari, har bir hayvon va o'simlik turining foydali xususiyatlari (dorivor, manzarali, estetik va boshq.), qolaversa, ro'yxatga kiritilgan turlar ustida doimiy nazoratni ushlab turish, ularni muhofaza qilish, populyatsiyasi ustida doimiy monitoring o'tkazish borasida fikr almashishdir. U yerda yovvoyi tabiatga bo'lgan munosabat, flora va faunasida yo'qolib ketayotgan turlarni asrash bo'yicha amaliy va nazariy bilimlar olindi.





Ma'lumot o'rnida, CITES (angl. Convention on International Trade in Endangered Species of Wild Fauna and Flora, CITES) - yovvoyi fauna va floraning yo'qolib ketish xavfi mavjud bo'lgan turlari bilan xalqaro savdo to'g'risidagi Konvensiya. 1973-yilda Vashingtonda Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqining (IUCN) rezolyutsiyasi natijasida imzolangan xalqaro hukumat shartnomasi hisoblanadi.